



BOLALAR PEDAGOGIKASIDA TA'LIM VA TARBIYANING UZVIY ALOQADORLIGI

Rahmonova Nigina

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Ingliz tili 3-fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Saodat Agzamxo'jayeva

Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili 3-fakulteti

Amaliy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada bolalar(kichik yosh) pedagogikasida ta'lim va tarbiyaning o'zaro uzviy aloqasi, ularning bola shaxsiyatini shakllantirishdagi roli hamda integratsiyalashgan yondashuvlar orqali qanday amalga oshirilishi yoritiladi. Oila, maktab va jamiyat hamkorligining ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, bolalar pedagogikasi, shaxs kamoloti, integratsiyalashgan dars, o'yinli ta'lim, ijtimoiy-pedagogik hamkorlik, zamonaviy pedagogika, axloqiy tarbiya, bilim va qadriyatlar uyg'unligi

Abstract. The article highlights the interrelation between education and upbringing in children's pedagogy, their role in shaping a child's personality, and how this is implemented through integrated approaches. The importance of cooperation between the family, school, and society is specifically emphasized.

Keywords: education, upbringing, children's pedagogy, personality development, integrated lessons, play-based learning, socio-pedagogical cooperation, modern pedagogy, moral education, harmony of knowledge and values

Аннотация. В статье рассматривается взаимосвязь образования и воспитания в детской педагогике, их роль в формировании личности ребёнка, а также освещается, как это осуществляется через интегративные подходы. Особо подчёркивается значение сотрудничества семьи, школы и общества.

Ключевые слова: образование, воспитание, детская педагогика, развитие личности, интегрированные уроки, игровое обучение, социально-педагогическое сотрудничество, современная педагогика, нравственное воспитание, единство знаний и ценностей.

“Tarbiya — insonni inson qiladigan vositadir. Ilm va odob egasi jamiyatning eng zarur a'zosidir.”

Abu Nasr Forobiy

“Ta'lim va tarbiya bir-birini to'ldiradi: bilim tarbiyasiz yo'qotiladi, tarbiya- bilimsiz puch.”

Y.A.Komeniskiy





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Bolalar pedagogikasi bugungi jamiyatda alohida o‘rin tutadigan, har bir avlod vakilining intellektual va ma‘naviy jihatdan yetuk, barkamol ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qila oladigan muhim ilmiy-amaliy sohadir. Mazkur yo‘nalishda ta‘lim va tarbiya tushunchalari bir-biriga bevosita aloqador bo‘lib, ular ajralmas pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Ta‘lim bola ongini, tafakkurini, bilish qobiliyatini shakllantirsa, tarbiya esa ularni maqsadli va ijobiy tomonga boshqarishni o‘rgatadi. Agar ta‘lim axborot asosida aqlni boyitishga xizmat qilsa, tarbiya esa ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish orqali shaxsiy kamolotga zamin yaratadi. Shu sababli bolalar pedagogikasida ta‘lim va tarbiyaning uzviy aloqadorligi har qanday rivojlangan va rivojlanayotgan jamiyat uchun dolzarb masaladir.

Bolalik – bu muhim ahamiyatga molik yosh va hayotiy davrdir. Bolalikning o‘ziga xos xususiyati - bu bolalarning ta‘lim olish tajribasidagi natijasida kattalardan ko‘ra ko‘proq o‘rganish va o‘zgarish qobiliyatiga egadir. Shu sababli ham kichik yoshdan boshlab bolalarda dunyoqarshni ta‘lim va tarbiya vositasida shakllantirish kelajakning muhim poydevori sanaladi. Ta‘lim — bu bolaning bilim olish, fikrlash, tushunish va hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi jarayon hisoblanadi. Tarbiya — bu bolaning shaxsiy fazilatlari, axloqiy va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiruvchi tizimdir. Ikkisi ham bola taraqqiyotining ikki qanoti bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, bola ona tili darsida grammatik qoidalarni o‘rganar ekan, bu uning aqliy rivojiga xizmat qilsa, dars jarayonida milliy qadriyatlar, hurmat, odob, do‘stlik haqida berilgan misollar uning ma‘naviy dunyosini boyitadi. Bu orqali bir vaqtning o‘zida ta‘lim va tarbiya bir birini qo‘llab-quvvatlaydi.

Ta‘lim va tarbiya o‘zaro mustahkam bog‘langan holda olib borilsa, bola nafaqat bilimga ega bo‘ladi, balki uni hayotda to‘g‘ri va foydali tarzda qo‘llashni ham o‘rganadi. Bu esa bola shaxsini to‘laqonli shakllantirishga imkon yaratadi. Masalan, texnologiya fanida ish xavfsizligi bilan tanishish orqali bola ehtiyotkorlik, mas‘uliyat, tartib kabi fazilatlarni egallaydi. Geografiya darsida esa tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, ekologik tarbiya haqida tushuncha beriladi. Zamonaviy o‘qituvchi har bir mavzuni o‘rgatar ekan, shu bilimlar asosida qanday qadriyatlar singdirilishi mumkinligini ham oldindan rejalashtirishi lozim. Bu esa ta‘lim-tarbiya uzviyligini ta‘minlashning amaliy mexanizmidir. Pedagogning vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanmasligi, balki shaxsni tarbiyalash, uni mustaqil fikrlashga, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga o‘rgatishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Pedagogik jarayonda quyidagi metodik yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi: Integratsiyalashgan darslar-bu dars jarayoni mobaynida bir necha fanlarni o‘quvchilarga tushunarli, qiziqarli va yaxlit tasavvurlarni shakllantirish uchun yagona pedagogik faoliyatga birlashtirish shaklidagi dars. Fanlararo integratsiya - bu turli fanlar mazmuni, metodlari va ko‘nikmalarini uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning umumiy fikrlash madaniyati va bilimlarini yaxlit tizimda shakllantirish usuli ekanligi haqida V.A.Slasyonin(Rossiya pedagogi)ta‘kidlaydi. O‘yinli ta‘lim- maktabgacha va kichik yoshli bolalar uchun o‘yin orqali bilim va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tarbiyani shakllantirish qulay usuldir. Bu tur ham zamonaviy pedagogning asosiy yondashuv usuli bo'lib bolalarni bilish faoliyatini rivojlantiruvchi, aqliy va ruhiy jihatdan bolani faollashtiruvchi, o'quv darsliklarini bajarishga yo'naltirilgan didaktik vositadir. Hayotiy vaziyatlar asosidagi darslar- real holatlarni tahlil qilish orqali bola axloqiy jihatdan qaror qabul qilishini o'rganadi. Bugungi kun pedagogi zamonaviy metodlarni bilgan, axborot texnologiyalaridan foydalanadigan va shu bilan birga tarbiyaviy yondashuvni doimo hisobga oladigan mutaxassis bo'lishi kerak, chunki endigina o'sib kelayotgan bolalarni mustaqil fikrlashga, jamoaviy ko'nikmalarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Oila, maktab va jamiyatning hamkorligi: Bola tarbiyasida oila birlamchi muhit bo'lib, undagi qadriyatlar va munosabatlar bolaning shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Maktab esa bu jarayonni ilmiy asosda kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Ular birgalikda hamkorlik qilgan taqdirdagina bola barkamol, bilimli, axloqli, shuningdek, ijtimoiy faolligi yuqori shaxs bo'lib voyaga yetadi. V.A. Salastenin, mashhur rus pedagogi, o'z asarlarida quyidagilarni takidlaydi: "Pedagogik jarayon faqat maktab doirasida emas, balki oila va jamiyat bilan uzviy aloqada amalga oshirilgandagina samarali bo'ladi". Shu sababli, bolaning shaxs sifatida kamol topishini ta'minlovchi asosiy omil ijtimoiy-pedagogik hamkorlik ekanligini ta'kidlab o'tishimiz kerak.

Bolalar pedagogikasida ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralmas, o'zaro to'ldiruvchi va uyg'un jarayonlardir. Faqat bilim berish — bola shaxsini to'liq rivojlantirmaydi. Faqat tarbiya berish esa bola tafakkuri, kasbiy yo'nalishini shakllantirmaydi. Shuning uchun har bir pedagog, ota-ona va tarbiyachi bola rivojida bu ikki omilning uzviy aloqadorligini tushunishi va o'z faoliyatida uni amalda qo'llashi zarur. Bugungi jamiyat uchun kerakli bo'lgan yetuk, ma'naviy boy, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy faol shaxslar aynan ta'lim-tarbiya uyg'unligi asosida shakllanadi. Shu bois bolalar pedagogikasida ushbu jihatga e'tibor kuchaytirish dolzarb va zaruriy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V.A. Salastenin va boshqalar. Pedagogika: darslik o'ily pedagogika muassasalari uchun. -Moskva, 2002.
2. G.J. Toshova, M.O. Ochilova, N.A. Raximova. "Oila pedagogikasi" fanining o'qitish ga zamonaviy yondashuvlar. Buxoro-2021.
3. www.unicef.org Bolani tarbiyalashning oqilona va zararsiz usullari.
4. R.G. Madaminovna. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim tarbiyasi. International scientific and practical conference "International experience and modern approaches in preschool education" ,2024.

